



**Umumta'lim maktabining 2023-2024-o'quv yili geografiya fanlarni o'zlashtirish
darajasini aniqlash**

III (Bo'lim summativ baholash)

II variant

9 - __sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 50)

1. Quyida nomlari keltirilgan millatlar orasidan qaysi uchlik Islom diniga e'tiqod qilishini toping.

belgilang.

- a) mordvalar;
- b) qalmiqlar;
- d) ukrainlar;
- d) tatarlar;
- e) ruslar;
- f) boshqirdlar;
- g) tuvaliklar;
- h) buryatlar;
- i) Shimoliy Kavkazdagi ko'plab xalqlar.

Javob: _____

2. Testni bajaring.

1. Quyidagi qaysi javob Qozog'iston uchun mos keladi?

- a) Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Ma'muriy-hududiy jihatdan unitar davlat bo'lib, 14 ta viloyat va 3 ta respublika ahamiyatidagi shahardan iborat.
- b) Ma'muriy-hududiy tuzilishi 7 ta viloyat va 2 ta respublika ahamiyatidagi shahar (Bishkek va O'sh)dan iborat.
- c) Ma'muriy-hududiy jihatdan 5 ta viloyat va 1 ta respublika ahamiyatidagi shahardan iborat. Poytaxti Kopetdog' tog' tizmasi etagida joylashgan
- d) Ma'muriy-hududiy tuzilishi birmuncha murakkab bo'lib, 2 ta viloyat, 1 ta muxtor viloyat (Tog'li Badaxshon), respublikaga bo'ysunadigan 1 ta shahar va 13 ta tumandan iborat.

Javob: _____

2. Quyidagi qaysi javob Qirg'iziston uchun mos keladi?

- a) Eng katta sanoat korxonasi Tursunzoda shahridagi alyuminiy zavodi. Bu korxona Rossiyadan keltiriladigan xomashyo asosida yirik GESlar ishlab chiqaradigan elektr energiyasidan foydalangan holda faoliyat ko'rsatadi. Alyuminiy mamlakat



eksportining tarkibida yetakchi o'ringa ega. Elektr energetikasi GESlarga tayanadi.

b) Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik (asosan, sifatli ingichka tolali navlar yetishtiriladi), uzumchilik, qorako'lchilik, yil qichilik hisoblanadi. Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur bo'lib, xalqining faxri hisoblanadi.

c) Asosiy yer osti boyliklari oltin, surma, simob, volfram, uran, qalayidan iborat. Yoqilg'i resurslari, asosan, mamlakatning janubidagi ko'mir konlari bilan cheklangan. Umuman olganda, mamlakat yoqilg'i zaxiralari bilan past darajada ta'minlangan hamda tegishli ehtiyojlarini import hisobiga qondiradi.

d) Iqlimi mo'tadil keskin kontinental va qurg'oqchil, qishda shimoliy hududlarida havo harorati -50°C dan ham past bo'ladi. Qurg'oqchil iqlim tufayli yurtning bepoyon tekisliklarida dasht, chalacho'l va cho'l tabiat zonalari shakllangan.

Javob: _____

3. Harflarni raqamlarga moslashtiring.

1-Qarag'anda

2-G'alaba

3-Sarez

4-Avaza

A-Qozog'iston

B-Qirg'iziston

C-Tojikiston

D-Turkmaniston

Javob:

1	2	3	4

4. Rasmlardan Turkmaniston uchun xoslarini ajrating? (3 ta)

		
1	2	3
		
4	5	6



		
7	8	9

Javob: _____

5.Osiyodagi tayanch rivojlanayotgan davlatlar qaysi?

Baholash mezonlari

N	Javoblar	Baholash mezonlari
1	d,f,i	Har bir to'g'ri javob 4 ballga baholanadi. Noto'g'ri javob uchun 0 ball. Jami: 12 ball
2	1-a,2-c	Har bir to'g'ri javob 5 ballga baholanadi. Noto'g'ri javob uchun 0 ball. Jami: 10 ball
3	1-A,2-B,3-C,4-D	Har bir to'g'ri javob 4 ballga baholanadi. Noto'g'ri javob uchun 0 ball. Jami: 16 ball
4	2,4,8	Har bir to'g'ri javob 3 ballga baholanadi.



		Noto'g'ri javob uchun 0 ball. Jami: 9 ball
5	Xitoy, Hindiston	To'g'ri javob 3 ballga baholanadi. Har biri 1.5 balldan. Jami: 3 ball
	Jami	50 ball

